



O'ZBEK ADABIYOTIDA INSON RUHIYATINING MURAKKAB QATLAMLARI: (ULUG'BEK HAMDAMNING "OTA" ROMANI ASOSIDA)

**Tilovqobilova Sevinch
Davronboy qizi**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy
pedagogika universiteti Filologiya fakulteti 4-
bosqich talabasi e-mail:
sevinchtilovqobilova@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli yozuvchi va munaqqid Ulug'bek Hamdamning hozirgi adabiy jarayonda tutgan o'rni, romanlarining janr xususiyati hamda yozuvchining badiiy mahorati yoritilgan. Ijodkorning bugungi kun romanchiligiga qo'shgan hissasi "Ota" romani tahlili orqali ochib beriladi. Shuningdek bu maqolada ijodkor uslubiga xos jihatlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: munaqqid, adabiy jarayon, roman, janr xususiyatlar, badiiy mahorat, romanchilik, ijodkor uslubi, ruhiyat, ota obrazi.

KIRISH

Roman (fransuzcha *roman*) – nasriy asar janri; muayyan shaxs yoki bir necha shaxsning shakllanish va kamol topish jarayoni badiiy makon va zamonda tasvirlangan asar. Roman o'rta asrlarda roman tillarida yozilgan har qanday asarni anglatgan. Romanda shaxs va jamiyat hayoti bir-birini inkor etmaydigan ma'lum ma'noda mustaqil olam sifatida tahlil va talqin etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Roman janri o'zbek adabiyotiga kirib kelishi bilan bu janr o'zining keng qamrovi, chuqur falsafiy savollar va qahramonlar hayotini atroflicha tasvirlash imkoniyati tufayli milliy adabiyotda muhim o'rin egalladi. O'zbek romanchiligi, avvalo, jahon adabiyotidagi o'zgarishlar va yangilanishlar ta'sirida shakllandi. Roman orqali yozuvchilar xalqning o'ziga xos turmush tarzi, tarixiy voqealar va milliy ruhiyatni kengroq miqyosda yoritib berishga erishalar. Ko'pincha romanlar personajlarning individual tajribasini hikoya qilishga, bu qahramonlar va ular yashayotgan dunyoning murakkabroq tasvirini yaratishga bag'ishlangan ichki his-tuyg'ular va fikrlar, shuningdek, hatto qarama-qarshi g'oyalar yoki qadriyatlar odatda oldingi adabiyot shakllariga qaraganda ko'proq romanlarda o'rganiladi.

"Adabiyotshunoslik lug'ati"da romanga shunday ta'rif beriladi: " Romanga ta'rif berilganda, odatda, uning hajman kattaligi, hayotni keng ko'lamda tasvirlashi, qahramon hayotidan katta davrni olib, turli ijtimoiy munosabatlar bilan bog'lab talqin qilishi, ko'plab va turfa kishilar taqdirleri orqali jamiyatning joriy holatini aks ettira olishi; murakkab ko'p chiziqli syujetga ega bo'lishi kabi janr xususiyatlari qayd etiladi.

Darhaqiqat, bu xususiyatlar aksariyat romanlarga xos, lekin janr xususiyatlarini shularning o‘zi bilangina belgilash kamlik qiladi: amalda hajman qissadan farq qilmaydigan yoki kichik davr mobaynida voqealar tasviri bilan cheklangan romanlar ham, markazida birgina shaxs taqdiri (boshqa personajlar uning xarakterini ochishga xizmat qiladi) turgan yoki birgina syujet chizig‘iga ega romanlar ham uchraydi.”¹

Roman janrining asrlar davomidagi taraqqiyotida uning turli xil va ko‘rinishlari yaratilganligi, bu janrning hozirda ham rivojlanib, boyib borayotganligini hisobga olib, unga qo‘yilayotgan talablar va o‘zgarishlar hamda uning turlari haqida shunaqa deyilgan: “ Bu o‘rinda har bir davrning badiiy-estetik talab-ehiyotlari romanga ma‘lum o‘zgarishlar kiritishi, o‘tgan davr mobaynida romanning turfa (tarbiyaviy, maishiy, ishqi, sarguzasht-detektiv, ijtimoiy-psixologik, tarixiy-biografik, satirik va h.) xillari yaratilgani, nihoyat, romanning hozirda ham takomillashib borayotgan janr ekanligini hamisha yodda tutish lozim.”²

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romanini tahlilga tortar ekanmiz unga yozilgan so‘zboshiga e‘tibor qaratmasdan o‘ta olmaymiz. Filologiya fanlari doktori, professor, Umarali Normatov bu xatboshida shunday yozadi: “Odatda biror kitobga annotatsiya yozar ekanmiz, yozuvchining mahoratiyu asarning tarbiyaviy ahamiyati haqida to‘xtalamiz. Bu gal yondashuvni o‘zgartirib, savol bilan boshlaymiz. Xo‘sh, o‘quvchi nega qimmatli vaqtini sarflab, ushbu kitobni mutolaa qilishi kerak? Bizningcha...

Birinchi sabab – yozuvchining mashhurli, muallifning bundan avvalgi kitoblari nafaqat o‘quvchilar, balki adabiy tanqidchilar tomonidan ham juda iliq kutib olingan. Tili, uslubi, zamon va makon tushunchalari o‘quvchini, so‘zsiz, «asir oladi».

Ikkinchi sabab – mavzuning originalligi. Ijtimoiy yengil-yelpilikdan uzoqligi asar nomidan ham bilinib turibdi: «Ota», «barcha otalarga bag‘ishlanadi». Demak, otalik hissi, otalik burchi, otalik hukmi, otalik so‘zi...

Uchinchi sabab — romanning hajmi. Asar katta emas, ammo voqealar bir inson umriga teng. Dastlab urush o‘chog‘ida tiriklik uchun kurash tasvirlansa, nihoyada osuda osmon ostida omonatni topshirishga tayyorlik manzarasi yuz ochadi. Tug‘ilish va o‘lim – bu oraliqda inson emas, ota – kim? Mutolaadan keyin mehribon, jonkuyar, ammo gunohkor ota haqidagi ushbu romanni yaqinlaringizga tavsiya etar ekansiz, to‘rtinchi sabab, sizda, albatta, bo‘ladi.”³

Ulug‘bek Hamdamning "Ota" romani zamonaviy o‘zbek nasrida inson ruhiyatining eng chigallashgan nuqtalarini tadqiq etuvchi, ijtimoiy va falsafiy mushohadalarga boy asar sifatida alohida o‘rin tutadi. Muallif ushbu asar orqali o‘zbek oilasining ichki dunyosini, otalik mas‘uliyatini va jamiyatning shaxs taqdiriga ta‘sirini tahlil qilar ekan, o‘quvchini nafaqat voqealar rivoji bilan, balki chuqur psixologik tahlillar bilan ham o‘ziga rom etadi.

Asarning ekspozitsiyasi uzoq yillik intizorlikdan so‘ng, nihoyat "ko‘hna g‘amlar qafasini parchalab" dunyoga kelgan qizaloq — Sevinchning tug‘ilishi bilan boshlanadi. Po‘lat va Yog‘du o‘n besh yil davomida farzand ilinjida yashab, barcha sinovlarni birga yengib o‘tadilar. Bu yerda yozuvchi farzandni oilaning nafaqat davomchisi, balki

¹ Qurunov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati – T.: Akademnashr,2010. – B-257-258

² Qurunov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati – T.: Akademnashr,2010. – B-257-258

³ Ulugbek Hamdam. (2005). "Ota." Tashkent: Yoshlar nashriyoti.

hayotning asosiy mazmuni va baxt manbai sifatida tasvirlaydi. Sevinchning tug‘ilishi bilan oila xonadoniga kirib kelgan nur, uzoq kutilgan quvonch va "ming yillik g‘ussa"ning barham topishi badiiy jihatdan mahorat bilan chizilgan.

Romanning o‘ziga xos jihatlaridan biri — muallifning milliy ism qo‘yish masalasiga alohida e‘tibor qaratishidir. Po‘lat ota obrazining monologlari orqali yozuvchi bugungi kunda ommalashib borayotgan "yevropalashish" an‘analarini va o‘zlikdan uzoqlashishni tanqid ostiga oladi. Yozuvchi qahramonlarga ism tanlashda turonalikka alohida e‘tibor qaratadi. Romanda bosh obrazlardan tortib, epizodik obrazlargacha turona ism tanlangan. Ulug‘bek Hamdam Polatning tilidan chaqaloqqa ism qoyishning tarifini quyidagicha keltiradi: “Chaqaloqqa Sevinch deb ot qo‘yishdi! Chunki sevinchli edi ular! Ming yillik g‘ussa bor edi O‘tkir akaning oilasida. Shu uchun sevinaylik, sevinchlarga yetaylik deb sevinchlanishdi. Qolaversa, bu oilada o‘g‘il-qizlarga turona ot qo‘yishardi. “Shundoq ham bir tomonimiz arabiyu boshqa tomonimiz forsiy otlarga to‘lib ketgan. Hatto ular juda-juda ko‘p. O‘rtada muvozanatni saqlash uchun, otlarimiz aytilganda, qaysi millatga tegishli ekanimiz bilinib tursin. Yo‘q, men boshqa millatlar ismlarini qo‘yishga qarshi emasman. Faqat me‘yor bo‘lsin, deyman”⁴

Ism — insonning ma‘naviy pasporti ekanligi, uning tub ildizlari millatning tili va tarixi bilan bog‘liq bo‘lishi lozimligi asarda qat‘iy talqin etiladi. Po‘lat ota tilidan aytilgan andishali fikrlar, milliy turkona ismlarning ma‘naviy muvozanatni saqlashdagi o‘rnini ko‘rsatib beradi.

Biroq, asarning markaziy nuqtasi bu kabi shukuhli voqealar emas, balki Po‘lat otaning ma‘naviy fojiasi va or-nomus to‘qnashuvidir. Sevinchning yuzi baxtsiz hodisa tufayli kuyib, chandiqli bo‘lib qolishi otaning ichki dunyosida dastlabki yoriqlarni hosil qiladi. U qizini cheksiz yaxshi ko‘rsa-da, uning bu "nuqsonli" yuzi otaning qalbida iztirob uyg‘otadi. Voqealar rivoji davomida Sevinchning benikoh farzand ko‘rayotgani haqidagi noto‘g‘ri ma‘lumot tarqalishi vaziyatni mutlaqo izdan chiqaradi.

Bu yerda yozuvchi o‘zbek mentalitetining eng murakkab qatlami — "el nima deydi?" degan andisha va erkak kishining or-nomusi masalasini ko‘ndalang qo‘yadi. Po‘lat ota uchun sharmandalikdan ko‘ra o‘lim afzalroq ko‘rinadi. Uning ichki kechinmalari insonning o‘z g‘ururi oldidagi ojizligini ifodalaydi. Otalik mehrining qahru g‘azabga aylanishi va natijada o‘z jigargo‘shasini qurbon qilishi — bu shunchaki jismoniy qotillik emas, balki jamiyat bosimi ostidagi ma‘naviy tanazzulning eng yuqori nuqtasidir.

Asar yakuni esa har qanday o‘quvchini chuqur o‘yga toldiradi. Haqiqat aniqlanib, Sevinchning pokligi isbotlanganda, Po‘lat otaning qamoqdagi so‘nggi iqrornomasi o‘ziga xos bir tavba sifatida yangraydi. U qizining ikki tomonlama — bir tomoni go‘zal, ikkinchi tomoni chandiqli yuzini butun hayotiga o‘xshatadi. Endi u uchun qizining har ikki yuzi ham birdek azizdir. Bu timsol orqali yozuvchi inson o‘z qismatini barcha kamchiliklari va dardlari bilan birga qabul qilishi kerakligini uqtiradi.

Xulosa qilib aytganda, "Ota" romani nafaqat bir oila fojeasi, balki insoniyatning doimiy hamrohi bo‘lgan xato, tavba va kechirimlilik haqidagi buyuk darsdir. Asar bizni har bir qadamda mulohaza yuritishga, haqiqatni yuzaki ma‘lumotlardan izlamaslikka

⁴ Ulug‘bek Hamdam. (2005). "Ota." Tashkent: Yoshlar nashriyoti.

va eng asosiysi, farzandga bo'lgan muhabbatni hech qanday shartlarsiz asrashga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umurov X. Adabiyotshunoslik nazariyasi – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashriyoti,2004.
2. Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati – T.: Akademiya nashriyoti, 2010.
3. Ulug'bek Hamdam. (2005). "Ota." Tashkent: Yoshlar nashriyoti.
4. Islomov, R. (2010). "Ulug'bek Hamdam va uning adabiyotdagi o'rni." Tashkent: Adabiyot nashriyoti.
5. "O'zbek adabiyotida realizm va modernizm." Tashkent: Fan va texnologiya.
6. Sharafjon Sariyev. Adabiyot. Metodik qo'llanma – Toshkent. 2019.